

## TALABALAR FAOLIYATIDA MUSTAQIL TA'LIMNING MAZMUN VA MOHIYATI

Ilmiy rahbar: UrDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi Bekchanova Feruza

Maktabgacha ta'lim 2-bosqich talabasi

Ro'zmetova Zuhra

**Kalit so'zlar:** Metodika, qo'llanma, kreativlik, takomillashtirish.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talabalarga mustaqil talimda metodikalar qo'llashning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda bu maqolada mustaqil ta'limda metod turlariga ahamiyat berish, uning asosiy mazmuni o'z aksini topgan.

Bugungi kunda davlatimiz tamonidan ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari talab qilinmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida metodik yondashuvlarning muhimligini oshiradi. Mustaqil ta'limda qo'llaniladigan metodikalar talabalar bilimini mustahkamlash, ularni o'rganishga qiziqtirish va yuqori darajada mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.

Mustaqil ta'lim talabaning o'zini o'zi boshqarishi, o'z vaqtini samarali taqsimlashi, o'z maqsadlariga muvofiq bilim olish jarayonini tashkil etishini anglatadi. Bu ta'lim turi, ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar mustaqil ishlarni bajarishda, ilmiy izlanishlarda va kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi<sup>1</sup>.

Talabaning shaxsiy faoliyatini rag'batlantiradi;

Fikrni mustaqil shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi;

<sup>1</sup> Islomov, M. Mustaqil ta'lim metodlari va ularning ta'limdagi o'rni. — Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.

O'qish jarayonida mas'uliyatni oshiradi.

Mustaqil ta'limda qo'llaniladigan metodikalar

Mustaqil ta'limda foydalaniladigan metodikalar talabaning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda asosiy vositadir. Quyida ularning eng muhimlari keltiriladi.

Loyihalashtirish Metodi - amaliy muammolarini aniqlash va ularni mustaqil hal qilish imkonini beradi. Bu metod talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va amaliy ko'nikmalarni: Loyihalashtirish metodi talabalarga o'zlarining ilmiy va shaxsiy qobiliyatlarini shakllantiradi.

Muammoli ta'lim Metodi - muammoli ta'lim metodi talabaning bilimni sinovdan o'tkazish, yangi ma'lumotlarni mustaqil izlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu metod orqali talabalar o'z fikrini asoslab berishni o'rganadilar.

Talabalar berilgan mavzu yoki masala bo'yicha ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlab, tahlil qilishlari lozim. Bu metod ular uchun ilmiy-tadqiqot faoliyatining muhim qismi bo'lib muamoli vaziyatlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Yozma ishlar talabalar uchun mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimlarni tizimlashtirishda yordam beradi. Bu metod yordamida talabalar o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifoda eta oladilar.

O'quv materiallarini mustaqil o'rganish imkoniyati bo'ladi.

Kitoblar, maqolalar, elektron resurslar orqali bilim olish talabalarda o'rganish motivatsiyasini oshiradi va o'z bilimlarini kengaytirishga imkon yaratadi. O'z mehnatlarni qadirlashga o'rgatadi. Eslab qolish qobilayatini yanada oshiradi.

Mustaqil ta'limda qo'llaniladigan metodikalar talabalarning ilmiy izlanishlari, mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning nafaqat akademik, balki kasbiy muvaffaqiyatlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, loyiha usuli orqali talaba o'z faoliyatining barcha bosqichlarini rejalashtiradi, muammolarni aniqlaydi va ularni hal qilish yo'llarini izlaydi. Bunda turli xildagi manbalardan foydalanish va to'g'ri usulda foldalanishni o'rganadilar.

Shuningdek, muammoli ta'lim metodi talabalarni faollashtiradi, qiziqishni yanada orttiradi va ularni bilim olishga jalb qiladi va mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi va yo'naltirib beradi. Bu metod orqali talabalar mustaqil ravishda fikr yuritishni o'rganadilar, shuning uchun ular keyinchalik har qanday muammoga moslashishga qodir bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda Mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir va unda qo'llaniladigan metodikalar talabaning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha, muammoli ta'lim, tahlil qilish va yozma ishlarni bajarish metodikalari talabalarning o'z bilimlarini mustahkamlashiga, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvga yordam beradi. Shu bois, oliy ta'lim tashkilotlarida bu metodikalarni takomillashtirish va keng joriy etish talabalar sifatini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Islomov, M. Mustaqil ta'lim metodlari va ularning ta'limdagi o'rni. — Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.
2. Karimova, D. Zamonaviy ta'limda muammoli va loyiha metodlari. — Toshkent: Ilmiy nashr.
3. Abdullayev, S. Mustaqil ta'limning psixologik asoslari. — Toshkent: Fan va ta'lim.
4. Rahimova, N Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish. — Toshkent: Ta'lim nashriyoti.